

## VIII. YAKUNIY SHARTLAR

7.1. Shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha bo'lgan muddatga tuziladi.

Shartnomaning amal qilish muddati tugaganda, tomonlardan biri uni uzaytirish yoki bekor qilish bo'yicha ariza bermagan bo'lsa, shartnoma keyingi har bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi (Byudjet tashkilotlari bundan mustasno). Ariza ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan bir oy oldin taqdim etilishi lozim.

7.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan va tomonlarning har birida saqlanayotgan ikki (Byudjet tashkilotlari uchun uch) nusxada tuzilgan. Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

7.3. Tomonlarning birini tashabbusi bilan shartnomani muddatidan oldin bekor qilish ikkinchi tomonni bekor qilish muddatidan o'ttiz kun oldin habardor qilgan xolda va tomonlar o'zaro hisob-kitob qilishi sharti bilan bekor qilinishi mumkin. Bekor qilish to'g'risida xabarnoma yozma ravishda yuboriladi.

7.4. Barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular faqat yozma ravishda amalga oshirilib, tomonlarning vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy xisoblanadi.

7.5. mazkur shartnoma talablarida nazarda tutilmagan tartib – qoidalar Vazirlik Maxkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22 son qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari hamda boshqa amaldagi normativ – huquqiy xujjatlar talablariga muvofiq tartibga solinadi.